

**POST COVID SINDROMLARDA YURAK QON TOMIRLAR TIZIMIDAGI  
MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK O'ZGARISHLAR**

Sh. Ya. Bustanov

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

**Tayanch so'zlar:** COVID-19, SARS-CoV-2 virusi, post - COVID sindromi, yurak – qon tomir tizimi, YuIK, o'tkir miokardit, miokard infarkti, toj tomirlari aterosklerozi.

**Ключевые слова:** COVID-19, вирус SARS-CoV-2, пост-COVID-синдром, сердечно-сосудистая система, ИБС, острый миокардит, инфаркт миокарда, коронарный атеросклероз.

**Key words:** COVID-19, SARS-CoV-2 virus, post-COVID syndrome, cardiovascular system, CAD, acute myocarditis, myocardial infarction, coronary atherosclerosis.

Tadqiqotda post covid sindromidan turli yosh guruhida vafot etgan bemorlar autopsiya ma'lumotlarida miokard va toj tomirlarida yuzaga keladigan morofologik va morfometrik o'zgarishlar o'rjanilgan. YuIKlarda yurak qon tomirlari tizimida sklerotik o'zgarishlarni rivojlanishi, o'tkazuvchanlikni va chap qorincha miokardining qisqaruvchanlik vazifasi buzilishiga, kardiomiostitlardagi distrofik o'zgarishlariga, ularni morfometrik ko'satkichlarini ya'ni kontraktif koefficienti, to'lqinsimon kechishli koefficienti, dissostiastiya belgilari bo'lgan kardiomiostitlarni miqdori va kardiomiostitlar diametrlarini ortishi bilan namoyon bo'ldi.

**МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ПОСТКОВИДНЫХ СИНДРОМАХ**

Ш. Я. Бустанов

Андижанский государственный медицинский институт, Андижан, Узбекистан

В исследовании изучены морфологические и морфометрические изменения, возникающие в миокарде и коронарных сосудах пациентов, умерших от постковидного синдрома в разных возрастных группах. При ИБС наблюдалось развитие склеротических изменений сосудистой системы сердца, нарушений проводимости и сократительной функции миокарда левого желудочка, дистрофических изменений в кардиомиоцитах, проявляется увеличением диаметра кардиомиоцитов, и их морфометрических показателей - сократительного коэффициента, коэффициент волнообразного течения и признаков диссоциации.

**MORPHOLOGICAL AND MORPHOMETRIC CHANGES IN THE CARDIOVASCULAR SYSTEM IN POST-COVID SYNDROMES**

Sh. Ya. Bustanov

Andijan State Medical Institute, Andijan, Uzbekistan

The study examined the morphological and morphometric changes that occur in the myocardium and coronary vessels of patients who died from post-Covid syndrome in different age groups. With CAD, the development of sclerotic changes in the vascular system of the heart, conduction disturbances and contractile function of the left ventricular myocardium, dystrophic changes in cardiomyocytes was observed, manifested by an increase in the diameter of cardiomyocytes, and their morphometric parameters - contractile coefficient, wave-like flow coefficient and signs of dissociation.

**Dolzarbliji:** COVID-19 muammosining dolzarbligini belgilovchi omillaridan biri bu post - COVID sindromi (PKS). Tadqiqotlar yuqumli jarayondan 3-4 oy o'tgach, yurak ishemik kasalligi (YuIK) va insult rivojlanish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatgan. PKS bilan kasallanish yosh bilan ortib borishini aniqlashgan, u yosh bilan tananing funkstional imkoniyatlarining pasayishi bilan bog'liq bo'ladi [3.7]. PKS yallig'lanishning o'ziga xos bo'lmagan ta'siri va ijtimoiy izolyatsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan doimiy simptomlarni o'z ichiga oladi [6].

SARS-CoV-2 organizmga uzoq vaqt ta'sir qilishi, PKSning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lishi mumkin. Doimiy viremiya, zaif gumoral reakstiyalar, qayta infekstiya, yallig'lanish va boshqa immunitet reakstiyalari, shuningdek, travmadan keyingi stress kabi omillar PKS rivojlanishiga yordam beradi [2].

Post covid sindromlar rivojlanganda sklerotik o'zgarishlar va o'tkazuvchanlikning buzilishi oqibatida chap qorincha miokardining qisqaruvchanlik vazifasi pasayishi asosiy xavfli omili hisoblanib, bu jarayonda yurak urishi ritmning buzilishi, yurak muskullarining distrofik o'zgarishi, shuningdek trigger omillarning ta'siri (metabolitik, ishemik, mexanik ta'sirlar) muhim rol o'ynashi qayd etilgan (substrat+trigger omil) [5].

Yurak mushaklari shikastlanishining sabablari - stressli kardiomiopatiya, miokardning makro va mikrovaskulyar shahobchasining shikastlanishidagi miokard ishemiyasi, stitokin bo'roni va b. Koronar arteriyalarda aterosklerotik pilakchalarni beqarorligida trombozni rivojlanishi YaIK

patogenezida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi [4,8,11].

RKSda miokarddagi o‘zgarishlarni sekstion diagnostikasi ko‘p hollarda qiyin kechadi. U qorinchalar fibrilyastiyasining YuIKlari og‘irlashuvlaridan morfologik identifikasiyasida histologik usullardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, miokardni ishemiyasida nisbatan kardial va ekstrakardial tabiatli omillarni triger roli ishtiroki muhim hisoblandi. Ekstrakardial omillar orasidan etakchi rol - ichki a’zolar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi ichki sekrestiya bezlari faoliyatini buzilishiga tegishli bo‘ldi.

Yurakda distrofik o‘zgarish oksidlovchi fosforlanish tezligining pasayishi, oqsil sintezining sekinlashishi, yog‘ almashinuvini buzilishi, elektrolit almashinuvini buzilishi, kislород yutilishining kamayishi bilan kechadi. Yurakda nordon glyukozaminoglikanlar to‘planib, miokard va stromasini shishiga olib keladi [9,10].


COVID-19 chastotasi, uning og‘ir kechishi va YuQTK rivojlanishi uchun xavf omillariga qarab PKS o‘rtasida murakkab assostiativ aloqalar aniqlangan. [1,2]

**Tadqiqot maqsadi:** Post covid sindromlarda yurak qon tomirlar tizimidagi morfologik va morfometrik o‘zgarishlarni o‘rganish.



**Tadqiqot ob’ektlari va usullari:** Tadqiqotda 2020-2023 yillarda COVID-19 infeksiyasi davrlarida va rost covid sindromidan vafot etgan 30 nafar bemorlar va ularga nazorat 18 ta boshqa sabablardan vafot etgan bemorlar murdasini (yosh guruhlari 20 yoshdan har o‘n yillik bo‘yicha) O‘zR SSV Patologik anatomiya markazi infekstion kasalliklar bo‘limida va Andijon viloyati shifoxonalarida vafot etgan bemorlar autopsiya tekshiruvlari ma’lumotlari tahlil qilindi. Miokard to‘qima bo‘laklari alohida-alohida 1x1sm kattalikda kesib olinib, fosfat bufer eritmasida tayyorlangan 4%-li neytral formalinda solib qotirildi. Histologik tekshirishlar uchun chap qorinchaning oldingi va orqa devoridan, cho‘qqisidan 2 sm yuqorida, mitral qopqa fibroz halqasidan 2 sm pastdan, qorinchalararo to‘sqidan kesimlar olindi. Spirit va xloroformda suvi qochirilgandan keyin bo‘laklar parafin bloklariga quyildi. 5-8 mkm qalinlikdagi to‘qima kesmalari gematoksilin va eozin bilan bo‘lib o‘rganildi. Gematoksilin eozin usulida bo‘yalgan miokard va toj tomirlari mikro-preparatlar MOF-15 mikrometri va kumush tuzlari bilan impregnatsiyalangan miokard mikro-preparatlar NanoZoomer (REFC13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN)da skaner qilindi, olingan mikrotasvirlar QuPath-0.5.0 dasturiy ta’midotida qayta ishlaniib, morfometrik ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

**Tadqiqot natijalari:** Qorinchalar histologik tekshirilganda kardiomiostitlarning 2-3-darajadagi kontraktur shikastlanishi ustunligi kuzatildi Kontrakturalarni joylashishi ko‘pincha chap qorinchaning oldingi, yonbosh va orqa devorlarida, asosan miokardning subendokardial va intramural bo‘limlarida aniqlandi. Yosh ortishiga parallel ravishda bemorlarda YuO‘IK (miokard infarkti, tasodifiy yurakdan o‘lim), YuSIK, (mayda va yirik o‘chog‘li kardioskleroz), o‘chog‘li miokarditlar va toj tomirlaridagi endoteliitlar, aterosklerotik o‘zgarishlarni dekompensasiyasi, destruksiyasi, trombozlar rivojlanishi ortishi qayd etildi (1-3 rasmlar).



RKS davrida o‘lgan bemorlarni yuragi va toj tomirlaridagi patomorfologik o‘zgarishlarda yurakda makroskopik miokardda ishemiya, mayda va yirik skleroz o‘chog‘lari, kardiomiostitlarning atrofiyasi, o‘chog‘li yog‘ bosish, chap qorincha devorini qalinishuv, ayrim holatlarda miogen dilyatastiyasi, mikroskopik venoz to‘laqonlilik, perivaskulyar shish, kardiomiostitlarni giperkontraktol holati, to‘lqinsimon burmalanishi, fuksinofiliyasi, fragmentastiyasi, ayrim holatlarda nekrozi, toj tomirlarida lipid dog‘lari va fibroz pilakchalar, ateromatoz o‘zgarishlar, ularni destruksiyasi, mikroskopik perivaskulyar skleroz, endoteliit, intima va mediyasini destruksiyasi, ishemiya, ayrimlarini trombozi kuzatildi.



I rasm. Bemor F.F., 1995y.t. I. mo‘tadil to‘laqonlilik, perivaskulyar skleroz, shish, oraliq to‘qimasini shishi, o‘chog‘li yog‘ to‘qimasini o‘sishi, mayda skleroz, o‘chog‘lari, ayrim guruh kardiomiostitlarni to‘lqinsimon kechishi, fragmentastiyasi, oraliq to‘qimasida oz miqdorda limfoid infiltrastiya. Gemm.-ezzin usulida bo‘yash. Kattalashtirish 4\*12.5.



2 rasm. Bemor D.R., 1959y.t. mo 'tadil to 'laqonlilik, tomirlari intimasini deskvamatsiyasi, qatlamlarini limfoid infl' tratsiyasi, perivaskulyar skleroz, shish, yog 'to 'qimasini o 'sishi, miokardda mayda skleroz o 'chog 'lari, o 'chog 'li yog 'to 'qimasini o 'sishi, ayrim guruh kardiomiostitlarni to 'lqinsimon kechishi, fragmentatsiyacu, oraliq to 'qimasida o 'chog 'li limfoid infl' tratsiya. Gemm.-ezin usulida bo 'yash. Kattalashtirish 4\*12.5 va 10\*12.5.



3 rasm. Bemor D.R., 1959 y.t. mo 'tadil to 'laqonlilik, diapedez qon quyilishlar, qatlamlarini limfoid infl' trastiysi, miokardda mayda skleroz o 'chog 'lari, ayrim guruh kardiomiostitlarni to 'lqinsimon kechishi, fragmentastiysi, o 'chog 'li limfoid infiltrastiya. 2. bemor J.M. 1956 y.t. 1.toj tomirlarida ateromatoz o 'zgarishlar, devorini qalinlashuvi, bo 'shlig 'ini ½ qismiga torayishi, destrukstiyasi, oxaklanish o 'chog 'lari, devor oldi trombi. Gemm.-ezin usulida bo 'yash. Kattalashtirish 4\*12.5.

RKSda miokard va toj tomirlardagi o 'zgarishlar yosh guruqlarida o 'rganilganda 3-4 oydan so 'ng 20-39 yoshli bemorlarda miokardda mayda skleroz o 'chog 'lari, o 'chog 'li miokardit, 40 va undan yuqori yoshdagи insonlarda esa mayda va yirik skleroz o 'chog 'lari, o 'chog 'li miokardit, toj tomirlarida stenozlovchi ateroskleroz, ayrim xolatlarda miokard infarktlari kuzatildi.

Toj tomirlari devorini aterosklerotik shikastlanishlari, qalinligi, stenozlanishi o 'lchanganda morfometrik ko 'rsatkichlar minimal 20-29 yoshda, maksimal 50-59 yoshda qayd etilib, destruktiv o 'zgarishlar bilan namoyon bo 'ldi.

Morfometrik tekshirishlarda chap qorinchasi kontraktil koeffistienti, to 'lqinsimon kechishli kardiomiostitlar koeffistienti, dissostiasiya belgilari bo 'lgan kardiomiostitlarni miqdori nazorat guruxiga nisbatan yoshga bog 'liq tarzda ortib borishi kuzatildi [4-6 rasmlar].

RKSlerda yurak qon tomirlari tizimida sklerotik o 'zgarishlarni rivojlanishi va o 'tkazuvchanlikning buzilishi artimiyalarga sabab bo 'lishi, chap qorincha miokardining qis-qaruvchanlik vazifasi buzilishi va uning etishmovchiligi, yurakning o 'tkir ishemik kasalliklarini keltirib chiqarishini inobatga olgan xolda tadqiqotda miokard kesmalari gistokimyoviy usullarda


kumush tuzlari bilan impregnastiya qilish orqali o'rghanildi.

RKSda kumush nitrat impregnastiyasi orqali tayyorlangan mikro-preparatlar NanoZoomer (REFC13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN)da skaner qilindi. Olin-gan mikrotasvirlar QuPath-0.5.0 dasturiy ta'minotida qayta ishlandi va subendokardial sohada joylashgan atipik (Purkine tolalari) va atipik kardiomiostitlar diametri (mkm) o'lchandi.


Mikrotasvirlarda miokard kesimining ko'ndalang tushishi har bir to'qima tar-kibiy qismlarini aniq o'lchash, miokardning tipik va atipik turlarini ajratishda va tutamli joylashgan mushak hujayralarini perimetri va relefidagi o'zgarishlarni aniq o'lchash imkonini berdi [7 rasm].

RKSlarda yurak qon tomirlari tizimida o'zgarishlarni rivojlanishi tipik va atipik kardiomiostitlardagi distrofik o'zgarishlariga, ularni morfometrik ko'rsatkichlarini ya'ni kardiomiostitlar diametrlarini ortishi bilan namoyon bo'ldi [1 jadval].


**Xulosa:** RKSlarda yurak qon tomirlari tizimida sklerotik o'zgarishlarni rivojlanishi, o'tkazuvchanlikni buzilishiga artimiyalarga sabab bo'lib, u chap qorincha miokardining qisqaruvchanlik vazifasi buzilishiga, uning etishmovchiligiga, yurakning o'tkir ishemik kasalliklarini keltirib chiqarishiga, tipik va atipik kardiomiostitlardagi distrofik o'zgarishlariga, ularni morfometrik ko'rsatkichlarini ya'ni kontraktil koeffistienti, to'lqinsimon kechishli koeffistienti, dissostiastiya belgilari bo'lgan kardiomiostitlarni miqdori va kardiomiostitlar diametrlarini ortishi bilan namoyon bo'ldi.



4 rasm. Chap qorinchasi kontraktil koeffitsienti.




5 rasm. To'lqinsimon kechishli kardiomiostitlar koeffitsienti.



6 rasm. Dissosiasiya belgilari bo'lgan kardiomiostitlarni miqdori.

chiqarishiga, tipik va atipik kardiomiostitlardagi distrofik o'zgarishlariga, ularni morfometrik ko'rsatkichlarini ya'ni kontraktil koeffistienti, to'lqinsimon kechishli koeffistienti, dissostiastiya belgilari bo'lgan kardiomiostitlarni miqdori va kardiomiostitlar diametrlarini ortishi bilan namoyon bo'ldi.



7 rasm. Bemor Ya.T., 1977y.t. 1. Subendokardial joylashgan argirofil tola destruksiyasi, retikulyar tolalarning fragmentastiyasi, atrofida atipik kardiomiostitlar ko'rsatilgan. 2. Bemor G.K. 1969y.t. Miokard tutamlari oralig'iadi Purkine tolalarining ko'rinishi. Kardiomiostitlar distrofik o'zgargan, keskin shishgan. NanoZoomer (REFC13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN)da skaner qilingan. Bo'yoq kumush nitrat impregnastiysi. O'lchami 40x10.

### 1 jadval.

**Yurakdan to'satdan o'limlarda chap qorincha miokardi tarkibining morfometrik ko'rsatkichlari (mkm).**

	Miokard tarkibi tuzilmalari (kardiomiostit) diametri						R≤	
	old yuzasi		yon yuzasi		orqa yuzasi			
	tipik	atipik	tipik	atipik	tipik	atipik		
<b>RKS</b>	41,2±1,1	17,9±1,1	43,3±1,2	17,0±0,8	44,3±1,0	15,5±1,0	0,01	
<b>Nazorat guruhi</b>	24,6±1,1	16,2±0,9	26,0±0,1	15,1±0,7	25,9±0,7	14,2±0,9	0,01	

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- Абдуллаева З.А. и др. Сердечно-сосудистые осложнения на фоне перенесенного COVID-19. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. Volume: 03 Issue: 02 | Mar-Apr 2022. C.17-21. ISSN: 2660-4159. <http://cajmns. Central asian studies. org>.
- Иванников А.А., Эсауленко А.Н., Васильченко М.К., Алиджанова Х.Г., Петриков С.С. COVID-19 и сердечно-сосудистая система. Часть II. Постковидный синдром. Журнал им. Н.В. Склифосовского «Неотложная медицинская помощь». 2021;10(2):248-258. <https://doi.org/10.23934/2223-9022-2021-10-2-248-25885>.
- Ларина В. Н., Головко М. Г., Ларин В. Г. Влияние коронавирусной инфекции (COVID-19) на сердечно-сосудистую систему. ВЕСТНИК РГМУ | 2, 2020 | VESTNIKRGMU.RU. С 5-13.
- Bermejo-Martin J.F., Almansa R., Torres A., González-Rivera M., Kelvin D.J. COVID-19 as a cardiovascular disease: the potential role of chronic endothelial dysfunction. *Cardiovasc Res.* 2020;116(10):e132–e133. PMID: 32420587 <https://doi.org/10.1093/cvr/cvaa140>.
- Chen C., Zhou Y., Wang D. W. SARS-CoV-2: a potential novel etiology of fulminant myocarditis // Herz. – 2020. – Vol. 45, № 3. – P. 230–232. DOI: 10.1007/s00059-020-04909-z.
- Garg P., Arora U., Kumar A., Wig N. The “post-COVID” syndrome: how deep is the damage? *J Med Virol.* 2021;93(2):673–674. PMID: 32852801 <https://doi.org/10.1002/jmv.26465>.
- Moreno-Pérez O., Merino E., Leon-Ramirez J.M., Andres M., Ramos J.M., Arenas-Jiménez J., et al. Post-acute COVID-19 syndrome. Incidence and risk factors: A Mediterranean cohort study. *J Infect.* 2021;82(3):378–383. PMID: 33450302 <https://doi.org/10.1016/j.jinf.2021.01.004> Russian Sklifosovsky Journal of Emergency Medical Care. 2021;10(2):248–258. <https://doi.org/10.23934/2223-9022-2021-10-2-248-258>.
- Poredos P., Jezovnik M.K. Endothelial dysfunction and venous thrombosis. *Angiology.* 2018;69(7):564–567.<https://doi.org/10.1177/000331971773223>.
- Sardu C., Gambardella J., Morelli M.B., Wang X., Marfella R., Santulli G. hypertension, thrombosis, kidney failure, and diabetes: is COVID-19 an endothelial disease? A comprehensive evaluation of clinical and basic evidence. *J. Clin Med.* 2020;9 (5):1417. PMID: 32403217 <https://doi.org/10.3390/jcm9051417>.
- Schmieder R.E. Endothelial dysfunction: how can one intervene at the beginning of the cardiovascular continuum. *J. Hypertens Suppl.* 2006; 24(2):S31–35. PMID: 16601559 <https://doi.org/10.1097/01.hjh.0000220101.57896.cd>.
- Simmonds P., Williams S., Harvala H. Understanding the outcomes of COVID-19—does the current model of an acute respiratory infection really fit. *The Journal of General Virology.* 2021;102(3):001545. <https://doi.org/10.1099/jgv.0.001545>.